


2025
IYUN

jami 3 282 ta
respondent
qatnashdi



Iyun oyida aholining kelgusi 12 oylik inflyatsion kutilmalari o'tgan oyga nisbatan biroz pasayib, **13,2** foizga teng bo'ldi.



Inflyatsion kutilmalarning omillari (respondentlar ulushi, foizda)	2024						2025					
	Iyul	Avg	Sen	Okt	Noy	Dek	Yan	Fev	Mar	Apr	May	Iyun
Kommunal xizmatlarning qimmatlashishi	51	49	45	47	51	56	57	63	59	59	57	50
Yoqilg'i va energiya narxining qimmatlashishi	44	46	47	46	51	57	50	52	48	47	49	45
Ish haqi va nafaqalarning oshishi	22	40	39	31	28	28	22	23	20	18	22	35
Transport xarajatlarining oshishi	26	26	28	26	30	35	30	31	28	29	32	30
Valyuta kursining o'zgarishi	39	42	50	51	51	55	46	41	39	38	37	27
Monopoliya va narxlarning sun'iy oshirilishi	28	27	29	28	31	33	25	32	26	26	26	24
Asosiy oziq-ovqatlarning qimmatlashishi	20	23	25	24	26	26	26	28	28	26	25	22

Kelgusida narxlarga oshiruvchi bosim ko'rsatishi mumkin bo'lgan asosiy omil sifatida **ish haqi va nafaqalar oshishini** qayd etgan aholi respondentlari ulushi ko'paygan bo'lsa, **kommunal xizmatlar qimmatlashishi** va **valyuta kursi o'zgarishini** omil sifatida ta'kidlagan aholi respondentlari ulushi sezilarli kamaygan.


TADBIRKORLARNING INFLYATSION KUTILMALARI

2025
IYUN

jami 1 639 ta
respondent
qatnashdi



Tadbirkorlik subyektlarining inflyatsion kutilmalari o'tgan oyga nisbatan sekinlashib, 11,8 foizni tashkil etdi.



Inflyatsion kutilmalarning omillari (respondentlar ulushi, foizda)	2024						2025					
	Iyul	Avg	Sen	Okt	Noy	Dek	Yan	Fev	Mar	Apr	May	Iyun
Kommunal xizmatlarning qimmatlashishi	50	47	46	42	49	52	54	58	52	55	54	47
Yoqilg'i va energiya resurslari qimmatlashishi	42	45	44	42	48	49	49	50	45	46	48	43
Ish haqi va nafaqalarning oshishi	17	38	38	30	29	25	26	22	23	23	24	33
Transport xarajatlarining oshishi	31	31	31	29	32	34	32	34	31	31	37	32
Valyuta kursining o'zgarishi	38	42	51	50	51	52	51	43	43	43	40	31
Xomashyo narxlarining qimmatlashishi	25	26	27	25	25	25	25	27	25	27	28	25
Soliq yukining yuqoriligi	28	27	27	23	25	27	24	27	26	27	27	25

Kelgusida narxlarga oshiruvchi bosim ko'rsatishi mumkin bo'lgan asosiy omil sifatida **ish haqi va nafaqalar oshishini** qayd etgan tadbirkorlar ulushi ko'paygan bo'lsa, **kommunal xizmatlar qimmatlashishi** va **valyuta kursi o'zgarishini** omil sifatida belgilagan tadbirkorlar ulushi sezilarli kamaygan.

INFLYATSION KUTILMALAR – SOHALAR KESIMIDA

2025
IYUN



Respondentlar

Aholi – 3 282 ta

Tadbirkorlar – 1 639 ta



Aholining yuqori inflyatsion kutilmalari **ishlab chiqarish** sohasi vakillari tomonidan bildirilgan bo'lsa, kelgusida narxlar shakllanishi bo'yicha nisbatan past kutilmalar **savdo** sohasi vakillari tomonidan qayd etildi.



Tadbirkorlarning yuqori inflyatsion kutilmalari **ilm-fan/ta'lim xizmati** sohasida faoliyat olib boradigan korxonalar tomonidan qayd etilgan bo'lsa, kelgusida narxlar shakllanishi bo'yicha nisbatan past kutilmalar **sog'liqni saqlash** sohasida kuzatildi.



INFLYATSION KUTILMALAR – HUDUDLAR KESIMIDA

2025
IYUN

Respondentlar
Aholi – 3 282 ta
Tadbirkorlar – 1 639 ta



Aholi inflyatsion kutilmalarining yuqori ko'rsatkichi **Toshkent shahrida** kuzatilgan bo'lsa, nisbatan past inflyatsion kutilmalar **Navoiy viloyatida** istiqomat qilayotgan aholi tomonidan qayd etildi.




Tadbirkorlik subyektlarining yuqori inflyatsion kutilmalari **Toshkent shahrida** kuzatilgan bo'lsa, nisbatan past kutilmalar **Qoraqalpog'istonda** faoliyat olib borayotgan tadbirkorlar tomonidan qayd etildi.

2025
IYUN


jami 3 282 ta
respondent
qatnashdi



Daromadlari 7 mln soʻmdan yuqori boʻlgan aholining inflyatsion kutilmalari nisbatan yuqori darajada shakllandi.



Hududlar kesimida aholining inflyatsion kutilmalari boʻyicha javoblar taqsimoti




SEZILGAN INFLYATSIYA (AHOLI)

2025
IYUN

jami **3 282** ta
respondent
qatnashdi



Iyun oyi yakunlariga ko'ra, aholi tomonidan sezilgan inflyatsiya darajasi o'tgan oyga nisbatan sekinlashib, **13,4** foizni qayd etdi.



Sezilgan inflyatsiya darajasining yuqori ko'rsatkichi **Toshkent shahrida** qayd etilgan bo'lsa, nisbatan past sezilgan inflyatsiya darajasi **Navoiy viloyatida** kuzatildi.


SEZILGAN INFLYATSIYA OMILLARI (AHOLI)

2025
IYUN

jami **3 282** ta
respondent
qatnashdi



May-iyun oylarida aholi tomonidan narxlarida yuqori
o'sish kuzatilgan asosiy turdagi tovar va xizmatlar





SEZILGAN INFLYATSIYA (AHOLI)

2025
IYUN

jami **3 282** ta
respondent
qatnashdi



Daromadlari 7 mln soʻmdan yuqori boʻlgan aholining sezilgan inflyatsiya darajasi nisbatan yuqori shakllandi.



Aholi tomonidan yuqori sezilgan inflyatsiya darajasi **ishlab chiqarish** sohasi vakillari tomonidan bildirilgan boʻlsa, nisbatan past sezilgan inflyatsiya darajasi **turizm** sohasi vakillari tomonidan qayd etildi.